

Ona yurting - oltin beshiging

O'ZBEKISTON
RESPUBLIKASI
MILLIY KETUBBLAYATI

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetası

2007-yil
12 - 18 -
mart
N:11
(66604)

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqsa boshlagan

Bahor keldi,
quv nang bolalar!



BU SAFAR MEN YUTDIM



Buvijonimning orzu-umidlari ro'yobga chiqqanidan xursandman. Ular meni oynayi jahon orqali namoyish etiladigan «Oltin toj» o'yini sohibi bo'lganimni ko'rishni niyat qillardilar. Afsuski, ko'rolmadilar. Chunki hozir oramizda yo'qlar. Quvonchimga teleo'yinda g'olib bo'lishimga yaqindan yordam bergan dono, aqlii buvajonim sherik bo'ldilar.

Fursatdan foydalanib, gimnaziyamiz direktori Dilbar opa Niyozmetova va boshqa ustozlarimni bahor ayyomlari bilan qutlayman. Barcha bilimdon tengdoshlarimni «Oltin toj» sohibi bo'lishlarini tilayman.

Sarvar AMINOV,

Xorazm viloyati, Gurlan tumanidagi
6-gimnaziyaning 6-sinf o'quvchisi.

DIAQAT, YANGI SAHIFAI!

Aziz bolajonlar! Sinfingizdag'i a'lochilarga hammangiz havas qilasiz, to'g'rimi? Ayniqsa, ularning xulq-atvori ham barchaga o'rnat bo'lsa.

Ana shunday a'lochi hamda namunali o'quvchilar uchun gazetamizda «A'lochilar sahifasi» ajratildi. Maktabingizdag'i eng a'lochi o'quvchining surati va u haqidagi ma'lumotni direktoringiz imzosi ostida tahririyatga yuboring. Biz ularni gazeta sahifalarida e'lon qilibgina qolmay, 1-Iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kunida tahririyatimizga taklif qilib, mukofotlaymiz.

Qani, qaysi viloyatdagi a'lochi o'quvchilarning surati birinchi bo'lib yetib kelarkin? Kim chaqqon bo'lsa, «A'lochilar sahifasi»da ham birinchi bo'lib surati e'lon qilinadi.

QANI, KIM BIRINCHI?

«KOSONTEPA» TARIXI



Men Qashqadaryo viloyatining Koson tumani yashayman. Tumanimizda betakror ijodi, she'rlari bilan elga tanilgan Abdulla Oripov, Jumaniyoz Jabborov singari shoirlar dunyoga kelishgan. Koson 1926-yil 29-sentabrda tuman deb e'lon qilingan.


1971-yilda esa shahar maqomi berilgan. Bugungi kunda tumanda 200 mingga yaqin aholi istiqomat qiladi.

Tumanimiz tarixi shu paytgacha to'liq o'r ganilgan emas. Uning hududida o'ndan ortiq arxeologik yodgorliklar bo'lib, «Kosontepa», «G'ay bartepa», «Ofrontepa» eng yiriklari hisoblanadi. Koson so'zi juda qadimiy so'z bo'lib, VIII asrda bu yerda yashagan buyuk hadisshunos olim Shayx Abdurahmon Mu'az ibn Yoqub al-Kosoniyning taxallusidan kelib chiqqan. IV-VI asrlarda zarb etilgan tangalarda «Kosonning ulug' shohi» degan yozuv bo'lgan. Demak, o'sha davrda ham shahar Koson deb nomlangan ekan. «O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi»ning V tomida yozilishicha, antik manbalarda uchraydigan Kisinippa viloyati nomi Koson so'zining o'zgarishi bo'lishi ham mumkin ekan. «Kosontepa» yodgorligi Rabot mahallasida joylashgan bo'lib, qadimiy shahar o'rnidir. Domla. N. Muhammedovning «Koson tarixi sahifaları» kitobida tepe o'rniida

2200 yil ilgari devorlar bilan o'r algan shahar barpo etilganligi yozilgan. Devor uch marta ta'mirlangan bo'lib, balandligi 10 metrga yetgan. IV-VI asrlarda Yerqo'rg'on tanazzulidan so'ng aholining bir qismi Koson shahriga ko'chgan. Koson qal'asi XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron etilgan va qayta tiklanmagan. XVI asrning 40-yillarida Shayboniylarga qarshi Bobomirak qo'zg'oloni bo'lib o'tgan.

Hozirgi kunda shahar o'ni yer bag'ridan 12-15 metrli tepe shaklida saqlanib qolgan. Kosontepaning sharqiy qismida chorgumbaz jome' masjidi joylashgan. 2006-yil Erqul aka Zikrillayev tomonidan masjid qayta bunyod etildi. Kosontepaning g'arbiy qismida Sultonxo'ja Ma'ozi Zabal qabristoni joylashgan bo'lib, u yerda o'nga yaqin ajodlarimizning tabarruk xoki joylashgan.


**Jobir ISMATULLAYEV,
M.Ulug'bek nomli ixtisoslashgan
maktab-internatning 9-sinf o'quvchisi.**



**«Vatan ichra mo'jaz Vatanim
insholar tanloviga**

OLIMA ONAJONIM

«Onajonim - mehribonim, Sen-la yorug' qalb-jahonim» insholar tanloviga



«Tong yulduzi» gazetasida onalarimizga bag'ishlangan insholar tanlovi e'lon qilinganini o'qib, juda quvondim. Sababi, anchadan buyon ular haqida yozgim kelib yurgandi.

Oyjonim – Baro Sultonova yosh kimyogar olimalar, Biorganik kimyo institutida ishlaydilar. Ko'plab tanlovlarda qatnashib, g'olib chiqqanlar. Hindiston, Germaniya, Finlandiya kabi davlatlarda bo'lganlar.

Yaqinda yana bir quvonchli voqeа ro'y berdi. Onajonim YUNESKO uyushtirgan «Ayollar va tabiiy fanlar» Xalqaro tanlovida g'olib chiqqib, Fransiyaning Parij shahrida bo'lib qaytdilar.

Shuncha ishlari, yumushlaridan ortib, biz uchun albatta vaqt topadilar. O'qishlarimizni nazorat qiladilar, shirin-shirin taomlar pishirib beradilar, betob bo'lib qolsak, yonimizdan jilmaydilar.

Men ham onamga munosib qiz bo'lishga harakat qilaman. A'lo baholarga o'qib, katta bo'lsam, ulardek olima bo'lmoqchiman.

**Madina SULTONOVA,
Respublika maxsus litseyining 3 -«B» sinf o'quvchisi.**



BUVIJONIM – JON-U JAHIJONIM

Bir kuni maktabga sochlarni mayda o'rib chiqdim. Sinfdoshim Abdulaziz: «Voy-bo», bugun «chiroyli» bo'lib ketibsan, ulama soch taqib olibsanmi?», deya sochim uchidagi popugini tortib, meni xafa qildi. Ustozimga aytib berdim. Lekin nimagadir Abdulazizni koyimadilar. Biroz o'ylanib turdilar-da, hamma o'quvchilarga qarab shunday dedilar: – Haqiqiy o'zbek qizi, buvijonisi bor nabiralargina sochlarni shunday o'rdirishadi.

Shunda dono buvijonim bilan faxrlanib ketdim. Buvijonim – Zarofat Usmonova ham men o'qiyotgan maktabda o'qiganlar, keyin shu maktabda 40 yildan ortiq dars berganlar, direktor o'rinosbasari bo'lib ishlaganlar. Buvajonim Ibrohim ota bilan besh o'g'ilni katta qilganlar. Ismimni ham qizlari bo'lmagani uchun qiz xumor qilib, Xumora deb qo'ygan ekanlar.

Xullas, buvijonim tengi yo'q, mehribon, dono ayollar. Baxtimizga umrlari uzoq bo'lsin.

**Xumora IBROHIMOVA,
Yunusobod tumanidagi 274-maktabning 5-«B» sinf o'quvchisi.**

MIR PIYOLA CHOY

Maktabdan qaytgach, odatdagidek buvijonimning huzurlariga oshiqdim. Ular hech tinch o'tirmaydilar-da, mana bugun ham avyonda tikish-bichish ishlari bilan bandlar. Yonlariga borgandim ko'zoynaklarini olib, yuzko'zimdan o'pib qo'ydilar. So'ng:

– Asal qizim, menga bir ko'k choy damlab bergin, – deya xontaxtadagi choynakni uzatdilar. Bir zumda choyni keltirdim-u, yana ul-bul olib kelgani oshxonaga chiqdim. Qayti kelganimda buvijonim nimalarnidir o'ylab o'tirgan ekanlar, meni ko'rib gap boshladilar:

– Qiz bolaning o'rganadiganlari juda ko'p-da. Qilgan ishlaring chiroyli, pishiq-puxta bo'lishini istayman. Hozir bir narsaga e'tibor bermading. Choy damlab kelganingda har doim avvalo uch marotaba qaytargin. Kelinoyingga e'tibor berganmisan, har doim shunday qiladi. Shuning uchun kelinoyingning choyi shirin bo'ladi-da. Agar boshqa ishlaring bo'lsa, choydan bir piyola quyib uzatgin-u, choynakni o'sha odamning yoniga qo'yib ber. Bu sening odobing, zehn-farosatingni ko'rsatadi. Odob esa qiz bolaning ziyatidir.

SAYYORABONU.



Muxlislar ijodidan

Umida RAHIMOVA
1989-yilda Qirg'iziston Respublikasi, O'sh viloyatining Suzoq qishlog'ida tug'ilgan. Hozirda Bektemir tumanidagi 293-maktabning 11-sinfida a'lo baholarga o'qiydi. Shuningdek, she'rlar yozadi, ko'p kitob o'qiydi.

Quyida uning ijodidan namunalar o'qiysiz:

UMR

Umr oqar daryo misoli,
O'tganini sezmay qolamiz.
Umrimizni sarhisob qilib,
Undan o'git, saboq olamiz.

Shunday ekan, aziz odamlar,
Ezgu ishlar qilib yashaylik.
Ham xayrli, savob ishlarni,
Qilish uchun doim shoshaylik.

Umida RAHIMOVA.

BAHOR

Bahor keldi ifor taratib,
Dil-u ko'ngillarni yayratib.
Sovuq qishni qoldirib ortda,
Odimlar go'zallik yaratib.

Go'zal bahor, maftunkor bahor,
Har qadamda nafisliging bor.
Ta'rifingni qo'shiqqa solib,
Mayin sozda kuylaydi anhor.

Daraxtlarda uyg'onib kurtak,
Yuz ochadi nozlanib asta.
Gullarin ifori borliqni tutar,
Bahorim naqadar go'zal, orasta.

«Yana bahor, mangu yorug' fasl. Unazarmida nim pushti libosda yurganday. Es-es bilaman, bolaligimda kurtaklarning bargga aylanishini o'z ko'zim bilan ko'rgim kelardi. Tushlarimda bu holatni necha bor ko'rganman. O'ngimda esa qayrag'och, tollar oldida bu mo'jizani ko'rish uchun soatlab poylardim...»

Ardoqli shoiramiz Zulfiya ko'hna Toshkent mahallalaridan birida o'tgan bolaligini shunday eslaydi. Oilada kenja farzand bo'lgan Zulfiya, Benjamin Spok yozganidek: «Ma'naviy boy, pok hayot bag'rida kechgan bolalik – go'zal bolalik»,

POK HAYOT BAG'RIDAGI BOLALIK

deb hisoblardi. Chindan ham shoiraning bolaligi go'zal va beg'ubor o'tganini uning yozganlaridan ham bilib olish mumkin...

«Bolaligim beg'ubor, juda baxtiyor o'tgan. Biz boy yashamaslik, faqat go'zal yashardik, tinch yashardik.»

Atoqli shoiramizning bolaliklari haqida ko'proq bilgimiz kelib, sevimli shogirdlaridan biri 30 yilga yaqin ustoz bilan hamnafas faoliyat yuritgan taniqli jurnalist San'at Mahmudova bilan suhbatlashdik:

–Ustozingiz haqida yozgan maqolalaringiz, kitoblariningizni o'qiganman. Zulfiya opa sizga bolalik xotiralarini ham so'zlab bergenmilar?

–Ha, o'rni kelganda ko'p voqealarni so'zlardilar. «Bolalik, yoshlik chog'larimning eng buyuk murabbiysi onam. Agar iste'dodim bor bo'lgan bo'lsa, uning chashmasi onam!», derdilar. Onalarining hovlilarini gulzorga aylantirib, jambil-u rayhonlarni gurkiratib qo'yganlarini, So'fi Olloyor-u Devonai Mashrab bayozlarini o'pib, qo'lga olib o'qib bergenlarini, ko'zlarida mehr shamlari yonib, gullagan o'rikday orasta yurghanlarini ajib bir muhabbat

bilan hikoya qillardilar. «She'r o'qishlarini ko'p sevardik. Nega, nima uchun, degan savollari-mizga sabr-toqat bilan muloyim javob berardilar», deya onalarini xotirlardilar.

O'zları ham bizga ana shunday onalarcha mehr ko'rsatardilar. Bilsam, Zulfiyaxonimning go'zal fazilatlarini kamol toptirgan, she'riyatga shaydolik hissini uyg'otgan – onalari ekan.

– Ko'p yozuvchilarining o'z bolaliklari haqida yozgan kitoblari bor. Shoiramizning ham shunday kitoblari bormi?

–«Xotiram siniqlari» nomli kitoblarida bolalik xotiralari, ota-onalari haqida o'qish mumkin. Men bu kitobni o'qib, ularning bolaliklariga havas qilganman. E'tibor bering-a, «yulduzlar haqida ertaklar aytuvchi onamning ovozi, otam, uning qo'lida jilmayib turgandek

qizg'ish cho'g', yerga ursa ko'kka sachraydigan akalarim... mana shular mening baxt deb ataganlarim», deb yozadilar ustozim. Otalari temirchi bo'lganlarini anglagan bo'lsangiz kerak. «Otash og'ushida ishlab, bizga non topardilar, metindan yaralgan jonmidi otam...», deb dostonda yozganlar. Ular otalarining temirni olovda toblab, har xil shaklga keltirishlarini zavq bilan tomosha qilar ekanlar. Keyinchalik inson qalbiga kirib borish temirni o'zgartirishdan ham mushkulroq ekanligiga amin bo'lganliklarini aytardilar.

– Ilk she'riy kitoblari haqida ham so'zlab bersangiz.

–Ma'lum bo'lishicha, qizlar bilim yurtida o'qiganlarida adabiyot to'garagiga qatnashganlar. Hali maktab yoshidanoq she'rlar yozgan ustozimizning «Hayot varaqlari» nomli ilk she'riy to'plamlari 1932-yil 17 yoshlarida nashr etilgan. Zulfiya opa ko'pincha «Shoirlar haqida she'rlari ma'lum darajada tafsif beradi», derdilar. Shuning uchun men ham «Tong yulduzi»ning barcha o'quvchilari shoiramiz haqida ko'proq bilishlari uchun she'rlaridan o'qishlarini, umuman, doim kitob, gazeta-jurnallarni sevishlarini istab qolardim...

Sayyora JO'RAYEVA.

YOSH SPORTCHILAR XORIJDA

Biror sport turi bilan shug'ullanishdan asosiy maqsad – salomatlik ekanligi hech kimga sir emas. Yana bir e'tiborli jihat – turli davlatlarda bo'ladigan Xalqaro musobaqalar tufayli sportchi o'zga yurtlarni taniydi, tafakkuri kengayadi, dunyoqarashi o'zgaradi. Sportchining bunday darajaga erishishida esa uning bu boradagi dastlabki qadamlarida ko'rsatilgan e'tibor, rag'batning o'rni beqiyosdir.

Bu borada «Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» tomonidan turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, jamg'arma tomonidan mamlakatimizning chekka hududlaridagi sportga oshno tutingan o'quvchi-yoshlar mahoratini charxlash maqsadida xorijiy mamlakatlarga jo'natish orqali ko'plab o'g'il-qizlarni sportga jalb qilish ham yaxshi samara berayotgani maqsadga muvofiqdir.


O'zbekiston «Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi» bolalarni xorijga chiqarishni 2005-yildan boshladi. O'tgan yili viloyatlarda yashayotgan yuz nafar bola jamg'arma hisobidan Xalqaro



musobaqalarda ishtirok etgan bo'lsa, hozir bu ko'rsatkich 250 nafarga yetdi. Sportning ko'plab turlari bilan muntazam shug'ullanayotgan bolalar Fransiya, Ukraina, Latviya, Germaniya, Rossiya, Niderlandiya, Qozog'iston va Tailandda tashkil etilgan Xalqaro turnir, o'quv-yig'in mashg'ulotlari va sport festivallarida qatnashish baxtiga tuyassar bo'lishdi.

SERSAVOL QIZALOQ

Aziz bolajonlar! Sahifamizning bugungi mehmoni pedagogika fanlari nomzodi, professor Oysha TO'RAYEVA bo'ladilar. Opani sizlar uchun yozilgan «Odobnom», «Hayot saboqlari», «Bola aziz, odobi undan aziz», «Oilada bola tarbiyasi» nomli kitoblari orqali yaxshi taniisaningiz, ajabmas. Oysha opa sizlardek sho'x, o'yinqaroq bolalik damlarini mana bunday xotirlaydilar:



–Esimda, bolaligimda ancha sho'x, tinib-tinchimas, o'ta sersavol qizaloq bo'lgandim. «Nega unday, nega bunday?» degan savollar bilan ota-onamni bezor qilib yuborardim.

Avvaliga savollarimga men tushunadigan qilib, soddalashtirib javob berishardi. Savollarim ko'payib ketganda esa: «Bas, qizim, ishlarimiz qolib ketyapti, qolganini katta bo'lganingda bilib olasan», deyishardi. Ba'zi ota-onalar kabi jerkib, muncha mahmadonasan, deya dashnom berishmasdi.

Yodimda, oyimning ortlaridan hecham qolmasdim, nima qilsalar, men ham shuni qillardim. Kir yuvsalar, yonlariga o'tirib dadamlarning dastro'mollari, o'zimning paypog'im, qo'g'irchog'imning ko'ylakchasini yuvishga urinardim. Ishlarini kuzatib, ulardan namuna olishga harakat qillardim. Kechqurunlari hammamiz dasturxon atrofida o'tirganimizda: «Dadasi, qizim mening malhami-jonim bo'lgan. Ukalariga qaraydi, ishlarimda dastyorlik qiladi. Bugun qancha kirlar yuvdik. Qizim yonimda o'tirib sizning paypog'ingiz, ro'molchalariningizni oppoq qilib yuvdi. Biram suyundimki», deb maqtardilar. Bundan dadamlar ham xursand bo'lib, meni bag'rilari bosib, erkabal: «Barakalla, oppoq qizim», deya peshonamdan o'pib qo'yardilar.

Ota-onamdan ibrat olib, besh o'g'limni ham doimo yumshoqlik bilan tarbiyaladim...

Bolajonlar, Siz ham ota-onangizga savol berib, ularni charchatib yuborasizmi? Savol berishdan hecham uyalmang. Zero, ulug' bobomiz Alisher Navoiy:

«Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim», deya bejiz hikmat bitmaganlar.

GULYUZ yozib oldi.

Namangan viloyatining Yangiqo'rg'on tumanidagi Iskovot qishlog'i voleybolchi qizlari bilan mashhur. Iskovotdagi 26-umumiyo'rta ta'lim maktabining sakkiz nafar o'quvchisi Germaniyaning Kyoln shahrida voleybol bo'yicha tashkil etilgan o'rtoqlik

uchrashuvida germaniyalik tengqurlarini 3:0

Sog' yurak – tog' yurak hisobida mag'lubiyatga uchratishdi.

–Biz uchun yaratilgan sharoitlarni bemalol rivojlangan mamlakatlarni qiyoslash mumkin, – deydi voleybol jamoasi sardori Zuhra Dehqonova. – Germaniyada ham muhtasham sport inshootlari ko'p. Biroq, ularda sport bilan shug'ullanayotgan odamlarni, ayniqsa, yosh bolalar va qizlarni uchratish qiyin. Yurtimiz viloyatlardagi sport inshootlariga borsangiz, har kuni o'nlab o'g'il-qizlarni uchratasiz.

Bugun umidli sportchi yoshlarimiz o'z ortidan qanchadan-qancha o'g'il-qizlarni ergashtirmoqda. Hozir chekka qishloqlarda yashayotgan bolakaylor ham sportga oshno tutinishsa, vaqt kelib dunyo kezishlariga ishonishmoqda.

Muharrama PIRMATOVA.



Fusunkor, mo'jizakor tabiat.

Uning injigliklarini qarang: kuni kecha bahoriy harorat qalblarimizni shodlikka to'ldirgan bo'lsa, kunoralab qorli, qirovli onlari bilan kayfiyatimizni tushirib yubordi. Bugun esa yana dillarga xush yoquvchi iliq, quyoshti kunlari bilan siylayapti bizni. Hammadan ham varrak yasab, qirlar sari oshiqsan bolajlarning quvonchi cheksiz.

Onalarimizdek mehribon-u mushfiq tabiatning sir-u sinoatlarini o'rganganimiz sari ochilmagan qirralari ochilaveradi, mo'jizalari bilan aqlimizni shoshiraveradi.

- chiqindilar tashlash uchun mo'ljallangan quti bo'm-bo'sh. Uning vazifasini esa yonidagi kichkina ariqcha bajaryapti.
- Chiqindilar bilan to'lib-toshgan ariqdan taralayotgan badbo'y hiddan dimog'ingiz yorilay deydi.

Yaqinda «Ekologik madaniyat» mavzusida dars o'tdik. Talaba yoshlar birin-ketin so'z olib, ekologik madaniyat borasidagi fikrlarini bayon edilar. Hammaning fikri bir xil: ekologiyaga, atrof-muhitiga ehtiyojkorona munosabatda bo'lishimiz, uni obodonlashtirishga har birimiz o'z hissamizni qo'shishimiz lozim. Shu tariqa 80 daqiqalik darsimiz yakun topayotgandi. Shu payt xonamiz eshibi taqillab, bir talaba ertaga shanbalik bo'lishini aytib ketdi. Xonada pichir-pichir bosflandi. Qarangki, shanbalikka kelishga

(Hikoya)
Saraton oyining boshlari edi. Ayni jala quyib, daryo toshadigan palla. Shanba kuni geografiya o'qituvchimiz Tojimurod domla Odilov bizni qishlog'imiz yaqinidagi Qoradaryo sohiliga sayohatga olib chiqdi.

O'zimiz bilan geografik asboblarni ham olgandik. Ustozimiz boshchiligidagi suvning haroratin teksira boshladik. Gidrometrimiz suv haroratinining ancha pastligini ko'rsatardi. Ustozimiz buning sababini endigina tushuntrira boshlagan ham edilariki, bordan bir gala olaqanotlar shovqin solib uchib kelib, o'zlarini ko'pirib oqayotgan azim daryo bag'riga urishdi. Muallimimiz xavotirlanib osmonga qaradi-da, u yer-bu yerdagi qora bulutlarni ko'rib: «Bolalar, tezda narsalarni yig'ishtiringlar, bu yerdan ketamiz, hozir sel keladi», dedi. Zumda narsalarimizni yig'ishtirib, yo'lga tushdik. Yo'lning yarmiga yetganimizda haligi qora bulutlar qalinlashib, ko'k yuzini qoplashdi. Birdan osmon gumburlab, jala quyib yubordi. Qiy-chuv qilib o'zimizni daryo qirg'og'idagi katta bir tolning panasiga oldik. Hammamizning ust-boshimiz ibib, shalabbo bo'lib ketdi.

Shu payt qo'zichoqning

YANA SUV HAQIDA



Ariqlar-u ko'llar bamisli tabiatning tomiri, suv esa qonidir. Tabiatdagi barcha tirik mavjudotlar, jumladan, insonlarning yashashi uchun ham suv juda muhim. Inson tanasining 70 foizini suv tashkil qilsa-da, u baribir suvga ehtiyoj sezadi. U ham xuddi yer kabidir, yashashi, ko'karishi uchun suv zarur.

Bugungi kunda tabiatga nisbatan qanday muomalada bo'lyapmiz? Bu savolga hech ikkilanmay, yomon, deya javob bersak, xato bo'lmaydi. Oddiy misol, bekatlardagi holatni olaylik. Har tong shahrimiz ko'chalari, bekatlari supurib, tozalab qo'yildi. Lekin kun yarmiga kelmay, yana o'sha avhol. Bekat yonidagi

ONA JONIM TABIAT

EHTIYOT BO'LING, TURNALAR!

Suratdagi turnani ko'rib, qanday turi bo'ldi ekan-a, deya ajablanayotgandirsiz?.. Bu oddiyigina oq turna. Faqt yelim xaltaga o'ralib qolgan, xolos. Qanday qilib, deysizimi? Ispaniyadagi axlatxonalarindan birida zaharli chiqindilar chiqaruvchi hech qanday zavod yoki korxona yo'q. Lekin ariqlar dan chiqindi qutisi o'mida foy-dalanadiganlar u yerda ham topiladi. Bizga-ku shifobaxsh buloq suvidan ichish nasib bo'ldi. Farzandlarimiz, nabiralarimiza-chi? Hademay buloqning o'zini ham chiqindixonaga aylanib ketmasligiga kim kafolat beradi? Shu haqida hech o'ylab ko'rganmisiz, aziz teng-doshlarim?

Nargiza MURODOVA,
O'zMU qoshidagi Sobir
Rahimov akademik litseyi o'quvchisi.

ayanchli ma'rashi qulog'imizga chalindi. Ne ko'z bilan ko'raylikki, daryoda bir qo'zichoq oqib kelyapti. Ichimizda eng nochha va abir bola sanalgan O'tkir ismli sinfdoshimiz o'zini suvgaga otdi. Muallimimiz: «Yo'idoshev, to'xta!» deya «hay-hay-laganlaricha qolaverdi. O'tkir suv bag'rida bir ko'rini, bir ko'rinnay oqib borayotgan qo'zichoqni bazo'r qirg'oqqa olib chiqdi. Bechora jonivor qaltilar turardi. Kimdir ro'moli bilan, yana kimdir ko'ylagi bilan

uni arta boshladi. Shu payt O'tkirning qo'lidagi qo'zichoq birdan jonlanib, daryo tomonga qarab yurakni ezadigan darajada ma'ray boshladi. Ustozimiz bir narsani tushungandy daryo tomon ildam yurib ketdi va ko'p o'tmay katta bir qo'yni qo'lida ko'tarib keldi. Ne ko'z bilan ko'raylikki, uning qo'lida jon berayotgan ona qo'y yotardi. Aksiga olib, pichog'imiz ham yo'q edi. Ming bir azobda jon berayotgan jonivor yonida «tomoshabin» bo'lib turishdan nariga o'tmadik. O'tkirning qo'lidagi qo'zichoq aftidan shu qo'yning bolasi shekilli, yulqinib chiqib, ona qo'yning yoniga oshiqdi. Mehr ilinjida ma'rabb, uning jasadini jajji, shu suqehasi bilan turta boshladi. Bu ayanchli holatni ko'rib, hammamiz yig'ladik...

Qo'zichoq asta boshini ko'tarib, umidvor nigohi bilan oramidan kimmnidir qidira boshladi. O'tkirga ko'zi tushgach, uning yoniga bazo'r yurib keldi. O'tkir engashib uni qo'liga oldi-da, hurpiyib ketgan yunglarini silay boshladi. Shu qisqa vaqt ichida qo'zichoq O'tkirga juda bog'lanib qolgandi. Uning ko'zlariga boqqanimda shashqator bo'lib yosh oqardi. Jonivorlarning ham ko'z yosh to'kishini o'shanda ko'rgandim. O'sha qo'zichoqning mungli nigobi hamon ko'z oldimidan nari ketmaydi.

Abdulaziz
MAMADALIYEV,
Andijon viloyati,
Baligchi tumani,
Cho'nqayma qishlog'i.



vo, ajabo!

QUSHLARNING PATI QANCHА?

Qushlar patining soni osmondagи biz oddiy ko'z bilan ko'ra oladigan yulduzlardan ham ko'proq ekan.

Ular orasida eng serpati oqqush ekan. 25000dan ziyod patlarining beshdan bir qismigina tanasida, qolganlari boshi hamda chiroli bo'ynida joylashgan.

Oqqushning patlari juda uzun va katta bo'lsa, shuncha patni qanday ko'tarib yuradi, deya ajablanishingiz mumkin. Barcha qushlar pattarini bemalol ko'tara olishadi. Sababi, ularning ichi g'ovak bo'lib, og'irligi 1 gramm ham chiqmaydi.

SHERNING ISHTAHASI

CHAKKIMAS!

Bitta sher yil mobaynida o'tta hisobda umumiy og'irligi bir yarim tonna keladigan o'n beshta hayvonni yeydi. Bu - taxminan 27 ming kilogramm ovqat degani. Demak, sher bir yilda 27 ming kilogramm go'sht yer ekan.

Bahodir RAHMONOV,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi 40-maktab
o'quvchisi.

BOSHQOTIRMA

3		4		
5				
6		7		
8				

Bo'yiga:

- 2.Mikroblar orasida eng katta guruh.
- 4.Chin mevalardan biri.

7.Ko'p yillik o't.

Eniga:


- 1.Xonaki gullardan biri.
- 3.Bakteriya hujayralari to'plamlardan biri.
- 5.Gul nomi.
- 6.Burchoqdoshlar oиласига mansub bo'lgan o'simlik nomi.
- 8.Eng yirik gul.

Tuzuvchi: Begzod XO'JANAZAROV,
Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi 2-umumiy o'rta ta'lim maktabining 6-sinf o'quvchisi.

Tanishing, do'stim Mallavoy!
Sunnatulla QO'ZIYEV
olgan surat-lavha.

Zilol suving ariqda oqadi lim-lim,
Bu sening sochlaring, men bun bildim.
Ko'z yoshing yomg'irdir, kulishing quyosh,
Nafrating chaqmoqdir, qahring tog'-u tosh.
Qushlaring qo'shig'i, sening navoing,
Atirguling rangi sening iboing.
Osmonda kamalak tovlansa agar,
Qarshingda tog'laring qaddini egar,
To'rt go'zal fasllar sen uchun g'urur,
Meni kechir tabiat, sening ushbu kun,
Insonlarni bo'lak dushmaning yo'qdir.

Odina ASHUROVA,
Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi
34 - o'rta maktabning 8-sinf o'quvchisi.



CHUMCHUQNING BOSHIGA OQ DO'PPI KIYGANI

(Davomi. Boshi o'tgan sonda).

Oradan ancha muhlat o'tgach qaytib kelsa, chigitunib chiqqan emish-u, atrofini begona o'tlar o'rabi olib, rivojlanishiga yo'l qo'y mayotgan emish. G'o'za nimjingga emish. Chumchuq:

- Chop-chop, mekunam,
Chopmasang mekunam.

Boshingni talqon qilaman,

Uyingni vayron qilaman, - deb endi ashulasini yana ham baland ovozda aytibdi. Ovozi yoqimli ekan, dehqon mamnun bo'lib yana suv quyibdi, o'g'itlar solibdi, atrofini chuqur-chuqur chopibdi. G'o'za endi gurkirab o'sa boshlabdi. Oldin shona chiqaribdi, shona gulga, gul ko'sakka aylanibdi. Kunlar o'tibi. Ko'sak oppoq bo'lib ochilibdi. Shunday oppoq emishki, uning oqligidan olam charog'on bo'lib turgan emish. Ashulachi chumchuq dehqonning o'ng yelkasiga qo'nib:

- Ter-ter, mekunam,
Termasang mekunam.

Boshingni talqon qilaman,

Uyingni vayron qilaman, -deb ashulasini aytibdi.

Dehqon chanoqni g'o'zadan uzib beribdi. Chumchuq chanoqdagi oppoq paxtani tumshug'ida tishlab, kunga betkay ayvonda o'zining paxtasini chuvib o'tigan kampirning yoniga uchib borib:

- Chuvi-chuvi, mekunam,
Chuvimasang mekunam.

Boshingni talqon qilaman,

Uyingni vayron qilaman, -deb ayvonning atrofini pirillab uchaveribdi. O'sha atrofning odamlari qushlar tilini yaxshi tushunarkan. Kampir chumchuq nima demoqchi ekanligini darrov tushunibdi. Bir zumda paxtani po'chog'idan ajratib beribdi. Chumchuq momiqday oppoq paxtani tumshug'ida tishlaganicha quvonchini ichiga sig'dirolmay, «pirr» etib uchib narigi hovliga o'tib, charxda ip yigrib o'tigan yana bitta buviga qarab:

- Yigir-yigir, mekunam,

Yigirmasang mekunam.

Boshingni talqon qilaman,

Uyingni vayron qilaman, - deb ashulasini aytibdi.

Kampir bunday qarasa, chumchuq betoqatroy emish. Darhol o'z ishini to'xtatib, chumchuqning oppoq paxtasini savag'ichda savab, charxida yigrib, chiroyli kalava qilib beribdi. Chumchuq hech tinmas emish. Kalavani tumshug'ida ilib, shaqir-shuqur bo'z to'qib o'tigan bo'zchining do'koniga borib:

- To'qi-to'qi, mekunam,

To'qimasang mekunam.

To'garagimizning navbatdagi mashg'ulotida «Men katta bo'lsam...» mavzusida insho yozishni taklif qilgandim. O'quvchilar xuddi avvaldan hozirlik ko'rishgandek zo'r ishtiyoy bilan kirishib ketishdi. Yozganlarini navbatma-navbat o'qib, o'zlarini baholashdi. «A'lo»ga baholangan

Kamronbekning inshosi menga ham juda yoddi. Unoshirlik va matbaachilik sohasida uzoq yillardan buyon mehnat qilib kelayotgan bobosi Azimjon Rixsiyevdek bo'lishni orzu qilishi haqida yozgandi. Bu sohaning mas'uliyati, mashhaqqati haqida batafsil to'xtalibdi. Xulosa o'rniда tengdoshlarini darsliklarni avaylab tutishga, ularni uka va singillariga ham bus-butun yetkazishga chaqiribdi.

Bolalar bilan maslahat-Kamronbekning bobosini uchrashuvga taklif qildik. Ular bolalik xotiralari, kasblarining sir-u sinoatlari haqida to'linlanib gapirib berdilar:

- Bolaligimdan kitob, gazeta va jurnal o'qishni yaxshi ko'rardim. Shuningdek, ularning yaratilishi bilan ham juda qiziqardim. Maktabni bitirgach, meni Toshkent Matbaa bilim yurtiga yetaklagan ham ana shu qiziqish bo'lgandi. Bu yerdan matbaachilik ishi alifbosidan saboq oldim, chopchilik

Boshingni talqon qilaman,

Uyingni vayron qilaman, - deb ashulasini boshlamoqchi bo'lgan ekan, bo'zchi g'oyat hushyor odam ekan, gap nimadaligini darrov tushunib, bir kalava ipdan bir go'zal mato to'qib beribdi, mato g'oyat go'zal ekan. Oppoq nur taratar ekan. Chumchuq undan juda-juda chirolyi do'ppi tiktirmoqchi bo'lib, tikuvchining huzuriga borib:

- Tik-tik, medanam,

Tikmasang medanam.

Boshingni talqon qilaman,

Uyingni vayron qilaman, - deb oxirgi marta ashula aytmoqchi bo'lib hozirlanayotgan ekan, bo'zchi bu yerdagi odamlarning hammasidan ham hushyor-u ziyrak ekan, chumchuqqa qarab «eng go'zal do'ppini mana men tikaman», deb yengini shimarib ishga tushib ketibdi. Aytganidek, ko'z yumib ochguncha bu dunyoda

tengi yo'q do'ppi paydo bo'libdi.

Boshida so'ppisi ham bor ekan.

Chumchuq uni boshiga kiygan ekan, haybati, salohiyati shunday oshibdiki, beixtiyor olamni to'ldirib ashula aytib

yuboribdi. So'ng poshshoning saroyiga borib, hovlidagi baland daraxtning shoxiga qo'nib:

- Mening do'ppim bor,

Poshshoniki yo'q.

Mening do'ppim chirolyi,

Poshshoniki bir xunuk, - deb ovozini baralla qo'yib ashula ayta boshlabdi. Poshsho dunyodagi eng chirolyi do'ppi mening boshimda deb yurarkan, chumchuqning bu ashulasidan g'azabi oshibdi. Hech chiday olmabdi. Ko'zi o'tkir bir mergani bor ekan, o'shani chaqirib «Man shu chumchuqni ot, dunyodagi eng go'zal do'ppi menda deyapti. Yolg'on, eng go'zal do'ppi faqat poshsholarda bo'ladi, ot, tezroq ot!», deb buyruq beribdi. Merganning og'zidan o'qlanadigan po'ta miltig'i bor ekan, o'shani o'qlab chumchuqning oppoq do'ppi kiygan boshini mo'ljalga olib otgan ekan, e, attang, o'q teskari otilib, poshshoning boshidagi shohona do'ppisini uchirib ketibdi. Chumchuq bundan juda-juda xursand bo'libdi.

Hozir ham shoxdan-shoxga qo'nib:

- Mening do'ppim bor,

Poshshoniki yo'q.

Mening do'ppim chirolyi,

Poshshoniki bir xunuk, - deb ashula aytib yurgan emish.

Tamom.

Davomi. Boshi o'tgan sonlarda.

«O'zbek xalq ertaklari» kitobidan

Xotin kiyimida ko'salar Rustamni arqon bilan bog'lab, ko'tarib, shahar tomon yo'l olibdilar.

Rustam har kuni saharda nay chalar ekan. Uni eshitgan o'tinchilar tong otganini bilib, yerto'lidan chiqishar va o'z tirikchiliklariga ketar ekanlar. Nay ovozini eshitaverган ota Rustam yotadigan supaga qarabdi. Supa ustida Rustamning do'ppisidan boshqa narsa ko'rinnabdi. Rustam bosh kiyimini birinchi marta qoldirishi ekan. Chol xavotirlanib atrofga qarabdi va «Rustamjon!» deb qichqiribdi. Bu ovoz xuddi na'ra kabi o'tinchilar qulog'iga borib yetibdi. O'tinchilar chol atrofiga yig'ilishibdi. Ular har toonga tarqab, qidirib ketishibdi. Chol



birozdan keyin og'ziga kumush qoplangu, unga egasining nomi yozilgan nosqovoqni ko'tarib kelibdi.

- Bolalarim, biz Rustamjondan ayrlibmiz. Kechagi panoh tilab kelganlar ayollar emas, erkak ayyorlar ekan. Bunga dalil mana bu nosqovoq. Men buni taniyman. Bu nosqovoq Salimboyning jiyani ko'sa Bo'rini, - debdi chol.

O'tinchilar nima qilishini bilmay, boshlari qotib qolibdi.

Hokim makkor kampir va o'n besh ko'sani e'zoz-ikromlar bilan kutib olibdi. Har birining oldiga qimmatbaho sarpo qo'yibdi.

- Sizlarga hozirgi bergen hadyam xamir uchidan patir. Keyin yana xursand qilaman, - debdi hokim. Salimboy o'rnidan turib:

- Erta ga xalqni rastaga yig'ib dor tikamiz, bu muttahamni osamiz, sizlarni o'shalar oldida yana hadyalarga ko'mib yuboramiz, - deb mo'lyovini burab qo'yibdi. Kampir Salimboya:

- Boyvachcham, - debdi, - bu yalangoyoqni xalqqa ko'rsatib bo'lmaydi. Xalq g'alayon ko'tarib bir kor-hol qilishi mumkin. Yana ko'p saqlab ham bo'lmaydi. Hushiga kelib qolsa, arqonlarni uzib tashlaydi. Shuning uchun tezdan yo'qotish yo'lini qidiring.

Shahar hokimi:

- Bu ish sizning ixtiyoriningizda. Qanday chora ko'rsangiz, biz qabul qilamiz, - debdi.

- Unday bo'lsa, Shaytonteja tagida tagi yo'q g'or bor. Shunga tashlaymiz. Unda devlar, ajdarlar bor. Ularga ham ovqat kerakda, - debdi kampir.

Shu qaror bilan bechora Rustamni tagi yo'q g'orga olib borib tashlashibdi.

Davomi keyingi sonda.



BOBOMDEK BO'LSAM DEYMAN!

Suratda: Azimjon aka nabiralar davrasida.

Iashib, hamkasblaridan so'rab bildik. Aql-idroki, iqtidori, kasb sirlarini tezda o'zlashtirib olishi bilan tizim rahbariyatining nazariga tushgan Azimjon aka «Mehnat» nashriyoti direktori muovini lavozimiga tayinlanibdilar. Keyinchalik «Sharq», «O'zbekiston» nashriyotlarida direktor muovini bo'lib ishladilar.

Shu kunlarda uch qiz, bir o'g'ilning mehribon dadasi, nabiralarining bag'rikeng bobojonisi Azimjon aka 60 yoshini qarshilabdilar. Gazetamiz muxlislari hamda to'garagimiz a'zolari nomidan ularni samimi yutlaymiz.

ARALASH - QURALASH

QAYSI RANGNI YOQTIRASIZ?


Aziz bolajonlar, insonning yoqtirgan rangiga qarab fe'l-atvorini bilish mumkinligini bilasizmi? Agar do'st tanlamoqchi bo'lsangiz, uni kiyimining rangiga e'tibor bering.

Oq rangni yoqtiradigan kishilar ochiqko'ngil, har narsaga aralashavermaydigan bo'lishadi. Bunday odamlar tezda muloqotga kirishaverishmaydi. Ulardan ma'noli gaplar chiqadi, juda turishqoq, o'ta pishiq-puxta bo'ladilar. Didlari nozik, ozodalikni, tartibni yoqtirishadi.

Qora, jigarrang, to'q moviy rangni yoqtiradiganlar esa hamma narsani nazorat ostida bo'lib turishini istaydilar. Juda jiddiy va qattiqqo'l bo'lishadi. Buyruq berishni yoqtirishadi. Chiroyli narsalardan pullarini ayashmaydi. Bunday odamlarga siringizni aytangiz, o'zлari bilmagan holda «oshkor» qilib qo'yishadi. Maqsadlari yo'lida hech narsadan toymaydilar.

Qizil, pushti, havo rang, och siyoh rangni yoqtiradiganlar xushchaqchaq, har qanday odam

bilan kirishib ketadigan, xotirasi juda kuchli bo'ladi. Tezda arazlab qoladilar. Lekin biroz o'tgach, gina-kuduratni unutib yuboradilar. Tabiatan bolalarcha beg'ubor, soddaliklari uchunmi, yolg'onchi, firibgarlarga tezda aldanib qoladilar.




YENGIL SALAT

Kerakli masalliqlar:

4-5 dona kartoshka, 2 dona qizil sabzi, 0,5 choy qoshiqda tuz, bir chimdim murch, 1 dona piyoz, 2 osh qoshiqda sirka, 1 piyola o'simlik yog'i, 1 bog' petrushka.

Tayyorlanishi:

Kartoshkani qaynatib olasiz. Sabzini o'rtacha kattalikda,



ICHIMDAGI YANA BIR ODAM

Siz ichki tuyg'ungizga qarab ish qilasizmi? Masa-lan, biror ishga qo'l urmoqchisiz, unda albatta «ichingizdag'i odam» bilan «maslahatlashasiz», shunday emasmi? Amerikalik olimlar ba'zi insonlarning ichida ikkita odam yashashini isbotlab berdilar.

-Ba'zi insonlarda ikki xil fe'lli odam yashaydi, deydi amerikalik ruhshunos olim Jon Xokkins. -Bunday odamlarning «fe'lli kelib» qolsa, hamma bilan gaplashib, hatto dardlashib, quvnoq, shod bo'lib qolishadi. Sho'xlik qilishga, hatto g'irt begona odam bilan ham chaqchaqlashib ketishga moyillik paydo bo'ladi. Bu vaqtida ko'zlariga hech narsa ko'rinnmaydi, to'y-tantanalar, turli kechalarning «yulduzi» bo'lishga intiladilar.

Ammo «ikkinci odami» esa uni sopolikka, tartibli, tarbiyalı bo'lishga undab turadi. Ikkinci odamning talablarini qondirish maqsadida, u darrov sergak tortib, «indamas» bo'lib qoladi. Ko'proq «ikkinci odam»ning gaplariga qulqutishgani bois jiddiy bo'lib yurishadi. Bunday odamlarni qattiq nazorat ostida ushlab turish yaramaydi, bu ularni jangovar qilib qo'yadi. Jahli chiqqanda boshingizni urib yorishdan ham toyishmaydi. To ichidagi tug'yoni bosilgunga qadar qo'yib berish kerak, shundagina qulog'ingiz tinch bo'ladi...

Ozoda TURSUNBOYEVA tayyorladi.

Shaxmat o'yini dastlab Ispaniyada paydo bo'lgan. 1886-yildan buyon u butun dunyoda sevimli o'yin hisoblanadi.

Voleybol o'yini 1895-yil amerikalik o'qituvchi Morgan tomonidan etilgan. U semiz va keksa shu o'yinga jalb qilgan.

Badminton Yaponi-kelgan. Bu o'yinni o'ynashgan.

Xat marka-o'qituvchisi qilgan. uchun sini ingliz tili Rovland Xill ixtiro 1840-yilda maktublar marka yopishtirish joriy qilin-gan.

Birinchi mashinani Karl Bens kashf qilgan. Keyinchalik esa turli marka va ko'rinishdagi avtomobillar ishlab chiqarila boshlagan.

Zuhra YO'LDSOSHEVA, Qashqadaryo viloyati, Qarshi tumaniidagi 25-maktabning 5-«A» sinif o'quvchisi.

BAYRAM DASTURXONIGA

Kerakli masalliqlar:

2 osh qoshiqda o'simlik yog'i, 2 osh qoshiq sirka, ozgina maydalangan ko'kat, 0,5 choy qoshiq shakar, 1 dona baqlajon, 2 dona bulg'or qalampiri.

Tayyorlanishi:

Chuqur tog'orachaga yog', sirka, ko'kat, tuz, shakar solib, aralashtirib qo'ying. Baqlajonni uzunasiga 3-4 bo'lakka, bulg'or qalampirini tozalab, ikkiga bo'lib, oldi-orqasini ozroq qovuring. So'ng yuqoridagi aralashmaga botirib oling yoki qovurilgan sabzavotni likopchaga solib, piyolaga esa aralashmani solib, dasturxoniga torting.




NARGIZA tayyorladi.

Yaqimli ishtaha!

Kattakon o'rmonda bir jajji filcha ota-onasi bilan birga yasharkan. U shunaqangi sho'x ekanki, ilonlarning dumini

FILNING OULOG'I NEGA KATTA?




bosib olar, maymunlarning bananini yeb qo'yar, shervachchlarni qo'rqitar, timsohlarning ko'llarini loyqalatar, o'zidan kattalarni ishiga aralashib, kichiklarga doim ozor berarkan. O'rmon shohi

bo'lmish sher unga bir necha marta tanbeh bersa-da, filcha bunga qulqoq solmas, aksincha, hammani dliga ozor yetkazib yurarkan. Bir kuni qo'shnisi begemotchani ko'lga itarib yuboribdi. Begemotcha dod solgancha timsoh-chalarining ustiga tushibdi. Qattiq zarbdan mayib bo'lib qolgan yosh timsohchalar yig'lab, onasiga arz qilishibdi. Timsoh xonim bu haqda filchaning ota-onasiga arz qilibdi. Filchaning otasi qulog'idan chunonam tortibdiki, u qizarib, supradek bo'lib qolibdi. Shu-shu fillarning qulog'i supradek bo'lib osilib qolgan ekan.

Bashorat ABDURAIMOVA,
Qashqadaryo viloyati, Yakkabog' tumani, 10-sinf o'quvchisi.


Mamont ila zamondosh hayvon, Hayvonlarning shohi...



Undan shirin-sharbat olinmis, Mehrigiyoh...

Suzmoq uchun taxtiravon yo'l, Ob-havodek xislati ko'p-mo'l...

Fikri-yodi
o'simlik,
Kasbi-kori...
(botanik)




TOPISHMOQLAR

Tez aytishlar

Tez aytishni tez aytin.
Tilingizni uzayting.
Kim tez aytar, kim sekin,
Xatosini tuzating.

Qirlarni qat-qat qalin qorlar qopladi.
Qizg'ish quyosh qumloq qirg'oqqa qo'ndi.
Kunni ko'rib-ko'rib ko'zing ko'nikib ketadi.
Hasan OTAQULOV,
Toshkent viloyati, Bekobod tumani.




RASMLAR KO'RGAZMASI



LABIRINT

Aziz bolajonlar, o'rmonda adashib qolgan qizalosqa to'g'ri yo'li ko'rsatib yuboring.



«MUZOAYMOQ» REBUSI

Ushbu rasmlarning bosh harflaridan kelib chiqadigan his-hayajon gapni aziz ustozlarim va onajonlarimiz Nayro'z tabrigi sifatida qabul qilishsin.

Nuriddin NOSIROV,

274 - maktabning 5-«A» sinf o'quvchisi.



TONG yulduzi

BOSH MUHARRIR v.b:

To'lqin HAYITOV

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,

Dilbar ALIMJONOVA,

Qahramon QURANBOYEV,

Jabbor RAZZOQOV

(«O'zbekiston» NMU bosh muharrir o'rinosari),

Dilmurod RAHMATILLAYEV,

Dilshoda DADAJONOVA,

Feruza JALILOVA

(Bosh muharrir o'rinosari),

Sobirjon SHARIPOV,

Ergashvoy SARIQOV.

Muassislar:

O'zbekiston matbuot va axborot agentligi,

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,

«KAMOLOT» Yoshlar ijtimoiy harakati,

«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'limgan xalqaro xayriya jamg'armasi.

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligida
0208-raqam bilan
2007-yil 2-fevralsa ro'yxatdan o'tgan.

Noshir:
«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
Gazeta

«O'zbekiston»
nashriyot-matbaa ijodiy uyi
kompyuter bo'limida terib
sahifalandi va chop etildi.
Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi. Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 60567
Buyurtma N: J 3416

Dizayner va
sahifalovchi:
Fazliddin
SHOYODGOROV

Navbatchi:
Ozoda
TURSUNBOYEEVA

Rassom:
Nodira MIRZAYEVA

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi, 30-uy.
Obuna indeksi: 198.

e-mail:
tong1924@mail.ru
Tel: 144-27-25
144-63-08
Tel./faks:
(99871) 144-38-10